

Date: 25th June-2026

**DAVLAT SEKTORIDA MOLIIYAVIY BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN HISOB-KITOB LARDA
KORRUPSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH**

Murodova Diluza Jalolovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Buxgalteriya kafedrası
o'qituvchisi

D.J.Murodova@mail.ru

Bugungi kunda davlat sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi nafaqat budget dissiplinasini mustahkamlash, balki davlat mablag'laridan foydalanish jarayonida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bilan ham uzviy bog'liq. Transparency International tashkilotining 2025 yil uchun e'lon qilgan Korrupsiyani idrok etish indeksiga (KPI) ko'ra, O'zbekiston 182 davlat orasida 31 ball bilan 124-o'rinni egallab, oldingi yillarga nisbatan pozitsiyasini yo'qotdi — bu holat islohotlarning izchil davom ettirilishi zaruriyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mamlakatimizda 2015 yildan buyon mazkur indeks umumiy hisobda sezilarli o'sishni (19 balldan 31 ballgacha) namoyon etgan, bu esa uzoq muddatli institutsional islohotlarning asta-sekin samara berayotganidan dalolat beradi.

Davlat boshqaruvida "qo'l" boshqaruvidan "avtomat" boshqaruv tizimiga o'tish jarayoni, shu jumladan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilgan 369 dan ortiq raqamlashtirish loyihasi, davlat xaridlari, budget ijrosi va moliyaviy nazorat sohalarida inson omilini qisqartirish orqali korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat sektori hisob-kitob tizimlarini raqamlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va korrupsiya xavflarini kamaytirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davlat sektorida raqamli texnologiyalarga asoslangan hisob-kitob tizimlarining korrupsiya xavflarini kamaytirishdagi asosiy yo'nalishlarini quyidagi to'rt guruhga birlashtirish mumkin: davlat xaridlarini elektronlashtirish, budget ijrosi va moliyaviy nazoratni raqamlashtirish, korrupsiyaviy xavflarni avtomatik baholash tizimlari, hamda ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytiruvchi platformalar (1-jadvalga qarang).

Yo'nalish	Raqamli tizim misoli	Korrupsiya xavfini kamaytirish mexanizmi
Davlat xaridlarini elektronlashtirish	Davlat xaridlari elektron tizimi, "Shaffof qurilish", "Ye-Auksion" va XT.XARID	Tender ma'lumotlarining ochiqligi, baholash mezonlarining avtomatlashtirilishi
Budget ijrosi va moliyaviy nazorat	"Ochiq budget" portali, "Davlat auditi" dasturiy ta'minoti	Subsidiya va imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiq joylashtirilishi, takroriy tekshiruvlar xavfining kamayishi

Date: 25th June-2026

Yo'nalish	Raqamli tizim misoli	Korrupsiya xavfini kamaytirish mexanizmi
Korrupsiyaviy xavflarni avtomatik baholash	Korrupsiyaviy xavflarni baholash elektron tizimi, "Raqamli komplains"	Yuqori xavfli vazifa va funksiyalarni ertaroq aniqlash, tezkor ma'lumot almashinuvi
Ochiqlik va jamoatchilik nazorati	"E-qaror" tizimi, mol-mulk deklaratsiyasi tizimi	Qarorlar qabul qilishda jamoatchilik nazoratining kengayishi, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash

Jadvalda keltirilgan tizimlarning amaliyotga joriy etilishi natijasida qaror qabul qilish jarayonida sub'ektivlik darajasi pasaydi, ma'lumotlar ochiq elektron platformalarda jamlanib, nazorat organlari — Hisob palatasi, Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'rtasida axborot almashinuvi tezlashdi. Xususan, 2022 yil 1 yanvardan ishga tushirilgan yagona elektron "Davlat auditi" dasturiy ta'minoti moliyaviy nazorat va ichki audit natijalarini bir tizimda jamlash imkonini berdi, bu esa takroriy va manipulyatsiyaga moyil tekshiruvlar xavfini kamaytirdi.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: turli davlat idoralari axborot tizimlarining to'liq o'zaro integratsiya qilinmaganligi, budget tashkilotlari hisobchi va moliya xodimlarining raqamli savodxonlik darajasining bir xil emasligi, hamda kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash masalalarining yetarli darajada hal etilmaganligi. Bundan tashqari, raqamli tizimlar orqali yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va korrupsiyaviy xavflarni prognoz qilishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish haligacha boshlang'ich bosqichda qolmoqda — bu borada 2026 yil 1 iyuldan sinov tartibida ishga tushirilayotgan "Raqamli komplains" axborot dasturiy kompleksi muhim qadam hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirish mumkin:

Davlat sektorida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun hisob-kitob jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, shu jumladan barcha moliya-budget axborot tizimlarini yagona integratsiyalashgan platformaga birlashtirish zarur.

Korrupsiyaviy xavflarni ertaroq aniqlash maqsadida sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalarni ("Raqamli komplains" tizimi kabi) keng joriy etish va ularning qamrovini barcha budget tashkilotlari darajasiga kengaytirish maqsadga muvofiq.

Davlat xizmatchilari va moliya-hisob xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini tashkil etish lozim.

Axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning kiberxavfsizligi va ishonchliligini ta'minlash bo'yicha texnik va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish talab etiladi.

"Ochiq budget" va shunga o'xshash portallar orqali jamoatchilik nazoratini yanada kengaytirish, fuqarolarning budget mablag'lari sarflanishi ustidan monitoring qilish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, davlat sektorida raqamli texnologiyalarga asoslangan hisob-kitob tizimlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi

Date: 25th June-2026

sifatida, shu bilan birga korrupsiyaviy xavflarni tizimli kamaytirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq erishilgan natijalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish uchun institutsional, texnologik va inson resurslari bo‘yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 dekabrda PF-270-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2025. — Berlin: Transparency International, 2026. — www.transparency.org.
6. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy ma’lumotlari. — www.anticorruption.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq budget” axborot portali ma’lumotlari. — openbudget.uz.

